

# **“YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH” ASARIDA OMMAVIY MADANIYAT VA MA’NAVIY TAHDIDLARDAN YOSHLARNI HIMOYA QILISHNING MEXANIZMLARI TAHLILI**

**Nabiyev Mansur Jamxur o‘g‘li Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi**

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti  
Falsafa, tariba va huquq ta’limi kafedrasи o‘qituvchisi**

**99 526-69-79**

**93 308-73-93**

**e-mail: [mansur.nabiyev@bk.ru](mailto:mansur.nabiyev@bk.ru)**

## **Anotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch asarida globallashuv davri va uning hususiyatlari, yoshlarga tahdid solishi mumkin bo‘lgan, ma’naviy tahdidlar, ma’naviy tahdidlarning amalaga oshirish mexanzimlari, ma’naviy tahdiddan himoyalanish mexanizmlari haqidagi tahlili fikrlari o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” buyuk tarix, madaniyat, va ma’naviyat, xalq, farzand, bugungi dunyo, mafkura, geosiyosiyat manzara, tasavvur, tafakkur, davlat, siyosat, arbob, shiddatli zamon, millat, farzandlarimiz, bilimli, dono, baxtli.

## **Аннотация**

В данной статье рассматривается период глобализации и его особенности, потенциальные угрозы молодежи, духовные угрозы, механизмы реализации духовных угроз, защита от духовных угроз в деятельности Первого Президента Республики Узбекистан И.А. Каримова Высокая духовная непобедимость. отражены аналитические взгляды на механизмы.

**Ключевые слова:** «Высокая духовность - непобедимая сила» великая история, культура и духовность, люди, дети, сегодняшний мир, идеология, геополитический ландшафт, воображение, мышление, государство, политика, человек, жестокие времена, нация, наши дети, образованные, мудрый, счастливый.

## **Annotation**

This article describes the period of globalization and its features, potential threats to young people, spiritual threats, mechanisms for the implementation of spiritual threats, protection from spiritual threats in the work of the First President

of the Republic of Uzbekistan IA Karimov. analytical views on the mechanisms are reflected.

**Key words:** "High spirituality is an invincible force" great history, culture, and spirituality, people, children, today's world, ideology, geopolitics landscape, imagination, thinking, state, politics, man, hard times, nation, our children, educated, wise, happy.

## Kirish

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida muallif buyuk tarix, madaniyat va ma'naviyat egasi bo'lgan xalqning farzandi, bugungi dunyoda kechayotgan global jarayonlarning ma'no-mazmunini teran anglaydigan, uning mafkuraviy, geosiyosiy manzarasini aniq tasavvur etadigan ulkan tafakkur sohibi, atoqli davlat va siyosat arbobi sifatida ko'pchilikni o'ylantirayotgan murakkab muammolarni xolis va haqqoniy tahlilini qilib bergen. Hozirgi shiddatli zamonda har qaysi millat, jumladan, bizning xalqimiz oldiga qo'yayotgan talablarini ochiq bayon qiladi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin"[1,114]

Albatta, bugungi dunyo boshdan kechirayotgan globallashuv jarayoni insoniyat uchun katta-katta imkoniyatlар eshigini ohib beradi. Lekin, afsuski, dunyodagi ayrim kuchlar shunday ham murakkab bu jarayonni yanada murakkablashtirib, obrazli qilib aytganda, suvni yanada loyqalatib, istagancha baliq tutishga zo'r bermoqda. Xususan, doimo zo'ravonlik va gegemonlik hisobidan boylik orttirib kelgan kuchlar mana shunday taloto'plardan foydalanib, "ommaviy madaniyat" g'oyasini keng targ'ib etmoqda.

Shu ma'noda asar muallifning quyidagi fikrlari barchamizni sergak torttirishi zarur: "Biz yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida ahamiyat berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmasligimiz kerak"[2,117].

"Ommaviy madaniyat" ning tag-zaminida avvalo tijorat, moddiy manfaatdorlik borligini bugungi zamonaviy fan ham e'tirof etadi. Haqiqatdan ham, yot mafkuralar har doim erkin bozor muhitida xaridorgir tovarlar bilan mustahkam o'rin egallaydi. Tuya karvonida bo'ladimi yoxud kema yukxonasida bo'ladimi – qanday shaklda bo'lmasin, olib kelinayotgan tovar yonida hamisha muhim siyosiy

“mahsulot” – g’oya bo’lgan va u boshqa mollar qatori eksport qilingan. Aynan ana shu taktika “universal madaniyat” eksportida bugun ham faol qo’llanmoqda.

Madaniyat – aslida nisbiy tushuncha. Bu tushunchaning shakllanishida kishini o’rab turgan muhit, yashash sharoiti, munosabatlar tizimi alohida o’rin tutadi. So’nggi o’n – o’n ikki yil ichida milliy turmush tarzimizga mutlaqo yot va begona bo’lgan zararli odatlardan biri “Valentin kuni”ni nishonlash ba’zi yoshlar orasida qandaydir “moda” tusini olmoqda. Bu o’z navbatida yuqorida zikr etilgan, globallashuvni sun’iy tezlashtirishga harakat qilayotgan va shunday manfaat topayotgan kuchlar uchun ayni muddao.

O’zingiz o’ylang, ota-bobolarimizning tushiga ham kirmagan “Valentin kuni”da aksariyat ko’ngilochar joylar va dam olish maskanlari “oshiq-mashuq”larni bayram dasturxoniga taklif etadi: xususiy radiostansiyalar ma’ni-matrasiz, bo’limg’ur qutlov va nomalarni eshittirishdan charchamaydi. Xolbuki, o’sha biz tanimaydigan, balki tanishimiz uncha shart bo’lmagan Valentin “bobo”ning nomiga hamdu sanolar yog’iladigan ayyomda, ya’ni 14-fevral sanasida buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan. Beixtiyor shunday hayolga borasiz: nima, maqsad – Bobur Mirzodek bobolarimizni yana xotiramizdan siqib chiqarib, ularni o’rniga Valentin “bobo”larni singdirish, bizni o’zligimizdan ayirishmi? Axir, biz bunday mudhish kunlarni, sinov va imtihonlarni yaqindagina boshimizdan kechirgan emasmidik? Bugun o’sha kommunistik xatarlar o’rniga boshqa bir xatar – “universal madaniyat” niqobidagi tahdid egallab olmayaptimi?

Ma’lumki, har qanday zararli g’oya odamni ichidan yemiradi, o’zini anglashiga salbiy ta’sir etadi. Shu ma’noda, Prezidentimizing 1998 yilda “Tafakkur” jurnali bosh muharriri savollariga bergen javobida: “Ba’zan beozor bo’lib tuyulgan musiqa, oddiygina multifilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma’lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalananadi”, degan fikrlarida ulkan haqiqat bor.

Tarix tajribasi shuni ko’rsatadiki, texnokratik jarayonlar har qancha qudratli harakat kasb etmasin, bu hayotni oldinga boshlaydigan, unga ma’no-mazmun baxsh etadigan kuch baribir madaniyat va ma’naviyat bo’lib qolaveradi. Mustaqil taraqqiyot yo’lini tanlagan har bir millat uchun axloq va milliy madaniyatni saqlash – eng dolzarb va ustuvor vazifalardan biridir. Chunki, axloq milliy tabiatni shakllantiradigan asosiy omildir.

Ma’lumki, axloqning tub mohiyatida diniy qadriyatlar alohida o’rin tutadi. Lekin sobiq Sovet davrida ana shu oddiy haqiqat unitilib, “kommunizm quruvchisining axloq kodeksi” degan soxta va sun’iy tamoyillarni joriy etishga zo’r berilgan edi. Ma’naviy tahdidlarning eng xatarli jihatni esa jamiyatlarning axloqiy tamoyillariga tahdid solishida namoyon bo’ladi. Milliy axloqqa tajovuzning beozor, hatto kimlargadir yoqimli bo’lib ko’rinadigan shakli – bugungi kunda “ommaviy madaniyat” deb targ’ib etilayotgan hodisa bilan bog’liq. Ommaviy madaniyat eng avvalo milliy axloqni zaiflashtirish, jamiyatning g’oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan xatarlidir.

Ayonki, hozirgi vaqtida har qaysi xalq yoki millatning madaniy saviyasini ko’rsatadigan mezonlar mavjud. Eng asosiysi – intellektual ong, yuksak ma’naviyat,

asriy an'analarga tayanadigan, zamonning ilg'or yutuqlaridan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e'tiqoddir. Demak, madaniy hayotga shunchaki bir ijtimoiy voqelik sifatida qarash to'g'ri emas. Aksincha, uni milliy g'oyaga turtki beradigan, unga tayanch va suyanch bo'ladigan kuch sifatida qarash lozim.

Kitobda alohida ta'kidlanganidek, Sharq dunyosida o'ziga xos demokratik instituti sanalmish oiladagi sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit hamma zamonlarda ham ma'naviyat qo'rg'oni bo'lib kelgan. Ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat "Oila" risolasida axloq-odoboda namunali avlodni tarbiyalash nafaqat bir millat yoki xalq uchun, ayni paytda butun insoniyat uchun g'oyatda muhim ekanini zikr etib, "Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi", deb yozgan edi.

Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotgan ekan, bunda farzandlarimizning nainki jismoniy, shu bilan birga, axloqiy va ma'naviy barkamol bo'lishi zarurligi alohida ta'kidlanayotganligini unutmasligimiz zarur. Chunki qalb ko'zi ochiq, ma'naviy tomondan baquvvat odamgina jamiyat talablariga ongli munosabatda bo'la oladi, bugun biz intilayotgan buyuk keljakni barpo etishga, dunyo maydonida boshqalar bilan barcha sohalarda musobaqaga kirishga qodir bo'ladi.

Lekin, ochiq tan olishimiz lozimki, "ommaviy madaniyat" xurujuni hali hamma ham to'liq anglab yetayotgani yo'q. Bu tahdidning ertaga qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'pchilik hayoliga ham keltirmayapti, ta'bir joiz bo'lsa, ular g'aflat uyqusida. Xolbuki, yaqin-yiroq yurtlarda "ommaviy madaniyat"ning achchiq, taxir mevalari – oila institutlarining darz ketishi, axloqsizlik va behayolikning avj olishi, ota-onha va farzandlar o'rtasida mehr-oqibat yo'qolib borayotgani, bir jinsli nikohlar – bularning barchasi bizning ko'zimizni ochishi kerak.

Ming affuski, madaniy hayotimizda fan nomzodlari va fan doktorlari soni tobora ortib borayotgani sari ma'naviyat maydonida fidoyilar, haqiqiy ma'naviy jasorat sohiblari, aksincha kamayib bormoqda. Bunday qarasangiz, ziyolilar ko'pga o'xshaydi, lekin ularning ta'siri, nufuzli so'zi yetarlicha sezilmayapti – "ommaviy madaniyat"ning asl mohiyatini ochib, unga qarshi kurash yo'llarini ko'rsatib beradigan publisistik chiqishlar, ilmiy va amaliy qo'llanmalar kamdan-kam paydo bo'lmoqda.

"Ommaviy madaniyat", tub mohiyatiga ko'ra, milliy madaniyatlarning kushandas, u madaniy xilma-xillikni xushlamaydi, bu olamni yakrang ko'rish uning asl maqsadi. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu xavfga quyidagicha baho beriladi: "Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'yaydi" [3,117]. "Ommaviy madaniyat"ko'plab jamiyatlarni sun'iy, soxta ideallar bilan

chalg’itibgina qolmasdan, odam bolasi uchun muqaddas bo’lgan tabiiy juftlikni inkor etadi, g’ayriinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtiradi va buni erkinlikning oliv namunasi deb ko’z-ko’z qiladi. Ana shu jarayonlarni chuqr tahlil etib bergen G’arb olimlari Elvin Tofflerning “Uchinchi to’lqin”, Patrik Byukenenning “G’arbning halokati” kabi asarlari dunyo miqyosida shov-shuvga sabab bo’layotgani ham bejizga emas.

Mutaxassislardan “ommaviy madaniyat”ning kishilarni ijtimoiy muammolardan jamiyatda sodir bo’layotgan o’zgarishlardan uzoqlashtirish, chalg’itishga qaratilganligini qayt etishadi. Amerikalik sosiologlar R.Matz va L.Gurkolarning fikricha, ommaviy madaniyat kishilarda fikrlashni emas, balki, be’mani, hayot realligidan uzoq syujetlar, miflar bilan yashashni shakllantiradi. Unda o’ta soda, siyqa qarashlar yangilik, badiiy-estetik kashfiyot sifatida taqdim etiladi. R.Glushkoning fikricha televideniyeda asosiy vosita bo’layotgan ommaviy madaniyatning 70-80% ermak, vaqt o’tkazishni nazarda tutadi. Unda be’mani, siyqa syujetlarga qurilgan seriallar, shou, o’yinlar, konsertlar namoyish etiladi. Konsertlar kliplardan iborat bo’lib, ularda “san’atkor”ning talanti emas, balki tashqi ko’rinishi, kiyinishi, uy-hovlisi kabilar ko’z-ko’z qilinadi.

Modomiki, “ommaviy madaniyat” g’oya ekan, unga qarshi qanday g’oya bilan kurashamiz? “Ommaviy madaniyat”ga kuch baxsh etib turgan biznesga-chi? Unga nimani qarshi qo’yamiz? Ana shu savollarning o’ziyoq “ommaviy madaniyat”ga qarshi turish oson kechmasligini ko’rsatadi.

Odatda bu masalaga yechim sifatida tarbiya milliy bo’lishi zarurligi, yoshlarni milliy ruhda voyaga yetkazish lozimligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Lekin yana bir haqli savol tug’iladi: yosh avlodni milliy ruhda kim tarbiyalaydi? Bizningcha, buning uchun to’la ma’noda milliy ruhni o’zida mujassam etgan jamiyatning intellektual elitasini shakllantirish zarur. Kezi kelganda aytish joizki, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnalogiyalarini egallash davr talabi, ammo uning o’zi intellektni belgilovchi birdan-bir mezon yoki o’lchov bo’la olmasligini e’tibordan soqit qilmasligimiz lozim. Shuning uchun ham keng miqyosda rivojlanayotgan globallashuv jarayonida millatga xos bo’lgan barcha sifatlarni jamiyatning intellectual eliasi saqlab qolishi, o’z navbatida yoshlarning qalbi va ongiga chuqr singdirishi, kelgusi nasllarga yetkazishi mumkin.

“Ommaviy madaniyat”da milliy xususiyat, milliy tarixiy asos yo’q. U milliy madaniyat, milliy xarakter, milliy manfaat nima ekanligini bilmaydi. Xalqning, millatning uzoq asrlar davomida yaratgan qadriyatlarini u ikkilanmay rad etadi. Milliy g’oya esa hayotni, real voqelikni ideallashtirmaydi, u kishining ma’naviy kamolga yetishi oson kechmasligini uqtiradi.

Milliy taraqqiyot g’oyasi bilan milliy (tarixiy, siyosiy, ma’naviy) yuksalish jarayoni o’rtasidagi fundamental bog’liqlik ularning demokratiyasini qaror toptirish, demokratik qadriyatlarni inson va jamiyat hayotiga singdirish uchun fuqarolarni demokratik jarayonlarga jalb etishga qaratilganidadir. Jamiyatda faoliyat olib borayotgan har bir ongli inson, shaxs, millat, irqi qaysi dingga e’tiqod qilishidan qat’iy nazar, o’z surriyoti, nasl-nasabini sog’lom bo’lishini istaydi. Lekin ma’naviy

sog'lom bo'lgan millatgina sog'lom avlodni tarbiyalay olishini har kin anglab yetavermaydi. Bugun esa mana shu oddiy, lekin mazmunan boy bo'lgan qoidani anglab yetish jamiyat muammosi ekanligini tushunish, anglash bosh masaladir.

Darhaqiqaq, "Ommaviy madaniyat"ning har qanday zararli ta'siriga qarshi g'oyaviy immunitetni faqatgina tarbiya, g'oyaviy tarbiya orqali shakllantirish mumkin. Chunki, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya to'g'ri olib borilganda inson ongi sog'lom, ezgulik g'oyalari bilan sug'orilgan, u har qanday yot, zararli g'oyalar ta'siriga qarshi kurasha oladi. Aksincha g'oyaviy tarbiya sust bo'lgan yoki to'g'ri olib borilmagan joyda inson ongi va qalbida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lib, bu bo'shliqni shu millatning tabiatiga yot g'oyalar egallab olishi va turli mafkuraviy tazyiqlar o'z zararini o'tkazishi muqarrar.

Shuning uchun ham fuqarolarda sog'lom mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish masalasiga jiddiy yondoshmaslik g'oyaviy-mafkuraviy, ijttimoiy-siyosiy befarqlikni keltirib chiqaradi. Aksincha to'g'ri olib borilgan g'oyaviy tarbiya, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvafaqqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lidagi ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlatni chuqurlashtirish yo'lida" asarida ta'kidlagan: "Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a siljishiga hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa belgilovchi ahamiyatga egadir..."[4,306]. Haqiqatan faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin.

Mustaqilligimiz biz erishayotgan yutuqlarimizni ko'ra olmaydigan kuchlar o'z maqsadlariga erishish uchun murakkab o'tish davrida ma'naviy hayotimizda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirishga, shuning hisobidan o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga intilib kelmoqdalar. Bunda ular avvalo boy va qadimiy ma'naviyatimizga qarshi kurashib, xalqimizni ana shu bebaho ma'naviy boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalardan foydalanmoqdalar. Bunday yovuz, g'arazli hatti-harakatlarni ma'naviyatimizga qilingan tahdid va tajovuz deb aytishimiz mumkin.

Shunday ekan, ma'naviy tahdid nima? Undan kutilgan maqsad va uning salbiy oqibatlari haqida o'zimizda tasavvur hosil qilishimiz lozim.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobidan to'liq javob olishimiz mumkin. "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim.

.....ma’naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o’tib kelayotgan o’ziga xos va o’ziga mos xususiyatlarga, milliy g’urur, milliy iftixor tuyg’usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo’ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo’lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi” [5,13-14]. Bunday mafkuraviy xurujlar esa milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishni, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko’zlaydi. Bizni ko’rolmaydigan g’arazli kuchlarning ma’naviyatimizga qarshi qaratilga har qanday tahdidi o’z-o’zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlari, sog’lom avlod kelajagini ta’minalash yo’lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin[6,12]. Eng yomoni bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni, ayniqsa, yoshlarni o’zi tug’ilib o’sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg’ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayt bo’lgan shaxsga aylantirishga qaratilgani bilan xavflidir.

Xalqimiz ma’naviyatga qilinayotgan tahdid va xurujlarning yo’nalishlari xilma-xildir. Bunda esa ular xalqimizning Islom diniga bo’lgan e’tiqodidan foydalanishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar.

Din, xususan, islom dini, ”...xalqimizning ma’naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Alloh marhamat qilgan bu hayotda to’g’ri yo’l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta’sirini hech qanday kuch bilan qiyoslab bo’lmaydi...

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g’arazli xuruj va xatarlardan, tuxmat va bo’htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib –o’sib kelayotgan yosh avlodimizga to’g’ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g’oyalarini keng targ’ib etish vazifasi hamon dolzarb bo’lib kelmoqda.

Xalqimiz ma’naviyatining negizini tashkil etuvchi islom dinidan ham g’arazli kuchlar uni buzib talqin etib foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bunda ular islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini teng qo’yishdan foydalanmoqda. Ular islom dinini niqob qilib olib, manfur ishlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, go’r yoshlarni o’z tuzog’iga ilintirib, bosh-ko’zini aylantirib, ulardan o’zining nopok maqsadlarida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha’niga dog’ bo’lib tushadi, oxir-oqibatda ma’naviy hayotimizga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so’ng jamiyatda paydo bo’lgan g’oyaviy-mafkuraviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan ma’naviyatimiz uchun mutlaqo yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o’z ichiga olgan “ommaviy madaniyar” yopirilib kirib kelishi ham ma’naviyatga qilinayotgan tahdidning yo’nalishi ekanini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Ma’naviyatimizga qilinayotgan bunday tajovuzkorona harakatlar xalqimiz uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg’ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.

Bugungi kunda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash “ommaviy madaniyat” namoyondalarining qarashlari bo’lib, u jamiyat taraqqiyotiga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Ko’pchilik butun jahonda bamisolı balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish, uning oldini olish naqadar muhim ekanini anglab yetmoqda.

“Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo’yish kerak, deb so’rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o’zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug’ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o’zlashtirishi, bugungi tez o’zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagи barcha o’zgarishlarga daxldorlik tuyg’usi bilan yashashi zarur, deb javob bergen bo’lardim”[7,17].

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu boradagi fikrlarini davom ettirib, ma’naviy tahdid va xurujlarga qarshi kurashda “... fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko’ra muhim ahamiyat kasb etmoqda”[8,119], – deb ta’kidlagan edi.

Hammamizga ma’lumki, kishi organizmidagi har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Bizlar ham farzandlarimizni Ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o’zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo’lib yetishsin. Ana shu johil aqidaparastlarning “da’vati” ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g’oyalar tahdid qilib ularga o’z ta’sirini o’tkaza olmaydi.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo’lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g’oyat o’tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko’rish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o’rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investisiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko’plab yangi ish o’rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg’unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekalogik ofatlar paytida o’zaro yordam ko’rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda[9,4].

Agarki mamlakatimizning har bir fuqarosi, xususan o’sib kelayotgan yosh avlod o’z mustaqil fikriga zamonlar sinovidan o’tgan hayotiy-milliy qadriyatlariiga, sog’lom negizda shakllangan dunyoqarash dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo’lmasa, har xil turli ma’naviyat tahidlarga, ularning goh oshkor, goh pinhona ko’rinishidagi ta’siriga bardosh berish anchayin qiyin kechadi.

Yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzARB masalalar o’zibo’larchilikka tashlab qo’yilsa, o’sha yerda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Yoki aksincha qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo’lsa, o’sha yerda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ma’naviyatning qudratli va yengilmas kuch ekanligini to’g’ri anglab, yoshlarimizning iymone’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni mustaqil fikriga ega bo’lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash ishiga alohida e’tibor qaratganlar. ZOTAN, mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma’naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.

Oldimizda turgan ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O’zbekiston XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o’rin egallashi ham – bularning barcha barchasi, avvalambor yangi avlod, unib-o’sib kelayotgan farzandlarimizning qanday insonlar bo’lib voyaga yetishiga bog’liq.

Vatanimiz ertangi kunini, o’z surriyotlari baxtu istiqbolini istaydigan har biro dam – u kim bo’lishi, qanday lavozim egasi bo’lishidan qat’iy nazar, yoshlarimizning ma’naviy, g’oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Bugun bu o’ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo’lishga hech kimning haqqi yo’q.

Endilikda ma’naviy va ma’rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko’tarilgan. Negaki, taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Yurtdoshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnalogiyani egallash qobilyati ma’naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat ma’rifatli insonning ikki qanoti bo’ladi. Bugun ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog’imiz, zamon, mustaqil taraqqiyotimiz, bozor munosabatlari davri talabidir.

Yurtimizda yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga, ma’naviyatga, kuchli bilim egallashiga, aqli, zukko, o’z ishiga mas’uliyatli, iqtidorli, irodali, qat’iy qarorli komil insonlar qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan ko’rinib turibdiki, globallashuv jarayonining ta’sir doirasi va qudrati toboro yuksalib borayotir. Ammo bu holatda har bir davlat o’z yoshlari ongi va shuurini musaffo saqlashga, turli yot g’oyalardan himoya qilishga majbur. Jumladan, O’zbekiston misolida aytadigan bo’lsak, bu murakkab vaziyatda turli vositalar bilan zulm va behayolikni targ’ib etuvchi omillardan yoshlarni asrab-avaylash borasida juda ulkan ishlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Binobarin, mazkur masala xuddi shu jihatli bilan ham dolzarb hisoblanadi[10,5].

### Xulosa

Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar o’z farzandini o’zi nosog’lom muhitda asrashi, ularning ongiga oqim, buzg’unchi g’oya, information xurujlarni

singdirishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularga qarshi chora tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rishi zarur.

Shunday qilib, mamlakatimizga kirib kelayotgan, shu yerda shakllanayotgan ma’naviy tahdidlar, buzg‘unchi g‘oyalar omma orasida tarqalishini oldini olsak, yurtimizning barqaror rivojlanishiga, kuchli rivojlangan davlatlar qatoridan joy egallashimizga, xalqimizni, avvalambor, yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalashga o‘z hissamizni qo‘shtan bo’lamiz.

## **ADABIYOTLAR**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent ; Ma’naviyat, 2008.- 114- bet
2. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent ; Ma’naviyat, 2008.- 117- bet
3. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent ; Ma’naviyat, 2008.- 117- bet
4. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. 306-bet
5. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent ; Ma’naviyat, 2008.- 13-14- bet
6. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent ; Ma’naviyat, 2008.- 12-bet.
7. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent ; Ma’naviyat, 2008.- 17- bet
8. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent; Ma’naviyat, 2008.- 119-bet.
9. Nabihev, M. (2020). YUAKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH ASARIDA GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHNING USUL VA VOSITALAR TAHLILI. *Arxiv Научных Публикаций JSPI, 1(74).* извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6497](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6497)
- 10.Nabihev, M. (2020). YUAKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH ASARIDA GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASHNING USUL VA VOSITALAR TAHLILI. *Arxiv Научных Публикаций JSPI, 1(74).* извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6497](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6497)